Paleoseysmologiya va arxeoseysmologiya ilmiy yo’nalishi rivoji yo’lida

O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Seysmologiya institutiga Buyuk Britaniyaning Oksford universiteti Yer bo’yicha fanlar fakulteti professori R.Uolker va Arxeologiya fakulteti tadqiqotchisi P.Vordstvor tashrif buyurdi va Seysmologiya instituti, Milliy arxeologiya markazi hamda Favqulodda vaziyatlar vazirligi vakillari ishtirokida seminar tashkil etildi.

Mazkur tashrifdan ko’zlangan maqsad seysmologiya fani tarkibiga kiruvchi paleoseysmologiya va arxeoseysmologiya ilmiy yo’nalishi bo’yicha ilmiy hamkorlikni yo’lga qo’yish.

Ma’lumki, Oksford universiteti dunyo miqyosidagi eng nufuzli universitet va ilmiy tadqiqotlar markazi ekanligi jahon hamjamiyati tomonidan e’tirof etilgan.

Buyuk Britaniya hamda O’zbekiston Respublikasi o’rtasida ko’p tomonlama iqtisodiy, madaniy-gumanitar aloqalar hamda ilmiy hamkorlikni rivojlantirish borasida keng ko’lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Albatta, jahon tajribasiga ega bo’lgan Oksford universitetining ilmiy yutuqlarini O’zbekiston sharoitida qo’llash, Fanlar akademiyasining ilmiy sohasiga joriy etish, kelajakda bu tadqiqotlarni Markaziy Osiyo bo’yicha ommalashtirish, nufuzli jurnallarda tadqiqot natijalarini yoritish hamda hamkorlikda xalqaro loyihalarni bajarish uchun asos bo’lib xizmat qiladi.

Tashrif yakunida Oksford universiteti bilan O’zbekiston Fanlar akademiyasi ilmiy-tadqiqot institutlari o’rtasida seysmologiya, arxeologiya va tarix sohalari bo’yicha ilmiy hamkorlikni yo’lga qo’yish, muassasalar o’rtasida hamkorlik memorandumini imzolash maqsad qilingan.

Ma’lumot o’rnida: Oksford universitetining yer haqidagi fanlar fakulteti professori Richard Uoker va Areologiya fakulteti tadqiqotchisi Pol Vordstvortlar tashrifi davomida O’zR Fanlar akademiyasi Seysmologiya instituti bilan birgalikda Toshkent viloyatining Oqqo’rg’on tumanida joylashgan Qanqa qishlog’i, Jizzax va Samarqand viloyatlariga tashrif buyurib, bir necha yuz yillar oldin yuz bergan zilzilalar o’rnini o’rganish va kelajakda seysmik xavfning oldini olish bo’yicha tavsiyalar ishlab chiqish, shuningdek, olib boriladigan tadqiqotlar bo’yicha qo’shma loyihalarni amalga oshirish yuzasidan fikr almashish, Samarqand davlat universitetida arxeologiya va tarix sohalarida ilmiy hamkorlikni yo’lga qo’yish bo’yicha fikr almashish rejalashtirilgan.